

The role of positive feedback in correcting speaking mistakes

Davlatova Vazira
Independent researcher
Efl Teacher, Uzbek State World Languages University
Department of Practice Disciplines,
Tashkent, Uzbekistan
vaziraotabekovna97@gmail.com

Annotation. This thesis explores the crucial role of positive feedback in correcting speech errors, drawing on research from various scholars. Increasingly important in education, especially for developing communication skills, the study highlights feedback's psychological impact and its significance within the Uzbek educational system. The research's relevance stems from the need for effective communication skills in a globalized world. Constructive feedback not only aids language acquisition but also fosters a positive learning environment, motivating students and boosting their self-esteem. Chapter one examines the theoretical underpinnings of the topic, emphasizing the development of effective feedback strategies for language correction in education. This approach benefits both teachers and students, enhancing the learning process. Chapter two delves into the influence of positive feedback on student psychology, focusing on its role in motivation and self-confidence. The research demonstrates that positive reinforcement fosters student development and self-assurance. Practical studies comparing groups using positive versus negative feedback reveal a significant increase in cognitive activity and speaking skills in those receiving positive feedback.

Key words: positive feedback, strategies, self-esteem, effective communication, psychological impact, constructive feedback

Роль позитивной обратной связи в исправлении речевых ошибок

Давлатова Вазира Независимый исследователь
Преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков
Департамент практических дисциплин, Ташкент, Узбекистан
vaziraotabekovna97@gmail.com

Аннотация. В этой статье, основываясь на исследованиях, проведенных разными учеными, рассматривается важная роль позитивной обратной связи в исправлении речевых ошибок. Это исследование подчеркивает психологическое воздействие обратной связи и ее значение в узбекской образовательной системе, которая становится все более важной в образовании, особенно для развития навыков общения. Актуальность исследования связана с необходимостью эффективных навыков общения в глобализированном мире. Конструктивная обратная связь не только способствует овладению языком, но и способствует созданию позитивной среды обучения, мотивирует учащихся и повышает их самооценку. В первой главе рассматриваются теоретические основы этой темы, делая упор на разработку эффективных стратегий обратной связи для коррекции языка в образовании. Такой подход приносит пользу как учителям, так и учащимся, улучшая процесс обучения. Вторая глава посвящена влиянию позитивной обратной связи на психологию учащихся, уделяя особое внимание ее роли в мотивации и уверенности в себе. Исследования показывают, что положительное подкрепление способствует развитию и уверенности учащихся. Практические исследования, сравнивающие группы, использующие положительную и отрицательную обратную связь, показывают значительное увеличение когнитивной активности и речевых навыков у тех, кто получает положительную обратную связь.

Ключевые слова: положительная обратная связь, стратегии, самооценка, эффективное общение, психологическое воздействие, конструктивная обратная связь

Gapirishdagi xatoliklarni to'g'irlashda ijobiy fidbekning ahamiyati

Davlatova Vazira
Mustaqil izlanuvchi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili amaliy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu bitiruv loyiha ishida "Nutqdagi xatolarni tuzatishda ijobiy fikr-mulohazalar o'rni" mavzusini o'rganadi. So'nggi yillarda ta'lim jarayonida, ayniqsa, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda, fikr-mulohazalar (feedback)ning ahamiyati sezilarli darajada oshib bormoqda. Tadqiqot ijobiy fikr-mulohazalar nutqdagi xatolarni tuzatishdagi o'ziga xos ahamiyatini, psixologik ta'sirini va O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'rnini chuqur o'rganadi. Ushbu mavzu dolzarbligi, o'quvchilarda samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligidan kelib chiqadi, chunki bu tez o'zgarib turadigan global dunyoda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, konstruktiv fikr-mulohazalar nafaqat tilni o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'quvchilarni rag'batlantiradi va o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradigan ijobiy o'rganish muhitini ham yaratishda muhim rol o'ynaydi. Birinchi bobda mavzuning nazariy jihatlarini tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, ta'lim jarayonida fikr-mulohazalar berish va nutqdagi xatolarni tuzatish strategiyasini samarali ishlab chiqishga qaratilganligida. Bu o'qituvchilar va o'quvchilar uchun foydali bo'lib, o'rganish jarayonini yanada samaraliroq qiladi. Ikkinchi bobda ijobiy fikr-mulohazalar o'quvchilarning psixologiyasiga ta'siri va motivatsiya va o'ziga ishonch shakllanishidagi o'rni chuqur o'rganiladi. Tadqiqot o'quvchilarni rag'batlantirish orqali ularning rivojlanishiga hissa qo'shilishini va o'zlariga ishonchni mustahkamlashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: ijobiy fikr-mulohazalar, strategiyalar, o'zini hurmat qilish, samarali muloqot, psixologik ta'sir, konstruktiv fikr-mulohazalar

So'nggi yillarda ta'limda, ayniqsa, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda, aks ta'sir (feedback)ning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Ushbu tadqiqot aks ta'sirning gapirishdagi xatolarni tuzatishdagi muhim rolini, uning psixologik ta'sirini va O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'rnini o'rganadi. Mavzuning dolzarbligini tezkor rivojlanayotgan global dunyoda o'quvchilarning samarali muloqot qobiliyatlariga ehtiyoj sezilarli darajada oshganligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, konstruktiv aks ta'sir berish qobiliyati tilni o'zlashtirishni yaxshilaydi, ijobiy ta'lim muhitini yaratadi, o'quvchilarni rag'batlantiradi va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradi. Fidbek, yoki "aks ta'sir", ta'lim jarayonida juda muhim vositadir. U o'quvchining o'rganish natijalarini baholash, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. O'quv jarayonida ijobiy fidbekning ta'siri haqida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Ushbu tadqiqotlar, ijobiy fidbekning o'quvchilarning akademik natijalariga, motivatsiyasiga va o'z-o'ziga ishonchiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu bo'limda, ijobiy fidbek qo'llangan guruhlarda o'quv natijalarining tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqotlar, ijobiy fidbekning o'quv jarayonidagi ahamiyatini ochib beradi va bu yondashuvning samaradorligini taqdim etadi (Zimnyaya, 2001)

Fidbek o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlab, ta'lim jarayonini samaraliroq qiladi. U o'qituvchi tomonidan, o'quvchilar o'zaro baholashlari orqali yoki o'z-o'zini baholash orqali berilishi mumkin. Ijobiy fidbek o'quvchilarning o'z-o'ziga ishonchini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlarining muvaffaqiyatlarini va kuchli tomonlarini ko'rganlarida, bu ularda o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi. o'z-o'ziga ishonch — bu

shaxsning o'z qobiliyatlariga, bilimlariga va mahoratiga bo'lgan ishonchidir. o'z-o'ziga ishonch kuchli bo'lganda, o'quvchi yangi vazifalarni bajarish, o'z fikrlarini ifoda etish va muloqot qilishda o'zini yanada erkin his qiladi (Sharipov, 2017).

Fidbekning asosiy vazifasi – o'quvchining bilimi, ko'nikmalari va malakalarini baholash va ularning rivojlanishiga yordam berish. Fidbekning to'g'ri tushunilishi uning ta'limdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Ta'limdagi fidbek, o'qituvchi tomonidan o'quvchiga berilgan ma'lumot bo'lib, o'quvchi o'qitish maqsadlariga erishish yo'lidagi yutuqlarini va kamchiliklarini ochib beradi. Ushbu ma'lumot, o'qituvchi o'quvchining topshiriqlarini, testlarini yoki boshqa faoliyatini tahlil qilib, o'quvchining o'zini qanday takomillashtirishini ko'rsatadi. Fidbekning maqsadi faqatgina yutuqlarni baholash emas, balki o'quvchining keyingi o'rganish jarayonida qanday samarali yo'nalish tutashini ko'rsatishdir. Fidbekni asosan ijobiy va salbiy turlariga ajratish mumkin. Ijobiy fidbek o'quvchining yutuqlarini ta'kidlab, uni rag'batlantiradi. Ijobiy fikr-mulohazalar o'quvchining o'rganishga bo'lgan ishonchini oshiradi, o'zini yaxshi his qiladi va ta'lim jarayoniga ko'proq qiziqadi. Masalan, "Inshoingiz ajoyib yozilgan, fikrlaringiz aniq va mazmunli" kabi izohlar o'quvchini keyingi ishlarda yanada diqqatli va ishtiyoqli bo'lishiga undaydi. Salbiy fidbek esa, o'quvchi tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatadi va ularni tuzatish bo'yicha tavsiyalar beradi. Salbiy fikr-mulohazalar ba'zan tanqidiy bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchi o'ziga ishonchini pasaytirishi mumkin. Shu bois, salbiy fidbekni ehtiyotkorlik bilan berish, o'quvchiga xatolarini tuzatish uchun aniq yo'llarni ko'rsatish zarur. Masalan, "Grammatik xatolaringiz ancha ko'p, bu qoidalarni yana bir bor o'rganishingiz kerak" kabi izohlar xatoning sababini tushuntiradi va tuzatish yo'nalishlarini ko'rsatadi. Fidbekni yana ikki turga ajratish mumkin: bevosita (immediate fidbek) va kechiktirilgan (delayed fidbek). Umuman olganda, fidbekning samarali bo'lishi uchun u doimiy, aniqlik bilan berilishi va o'quvchi rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. To'g'ri tashkil etilgan fidbek ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olish darajasini oshiradi va ularga keyingi o'rganish bosqichlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi (Nazarova, 2019).

Bevosita fidbek o'qituvchi tomonidan o'quvchining faoliyati darhol baholanib, darhol tahlil qilinganida beriladi. Bu turdagi fidbek ko'pincha dars davomida yoki topshiriq bajarilgandan so'ng darhol taqdim etiladi. Bevosita fidbekning afzalligi shundaki, u o'quvchiga tezda javob olish imkonini beradi va xatolarni darhol tuzatishga yordam beradi. Bu o'quvchilarga o'z xatolarini esda qoldiradi va keyingi safar ularni takrorlamaslikka undaydi. Masalan, og'zaki gapirish jarayonida o'qituvchi o'quvchining xatosini sezsa, darhol uni to'g'irlab, to'g'ri versiyasini aytishi mumkin. Kechiktirilgan fidbek esa topshiriq yoki imtihondan so'ng bir muddat o'tganidan keyin beriladi. Bu turdagi fidbek ko'proq test natijalari yoki yozma ishlardan keyin beriladi. Kechiktirilgan fidbekning afzalligi shundaki, o'quvchi natijani diqqat bilan tahlil qilish va o'zining ishlash darajasini mustaqil ravishda baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin bu fidbek turi o'quvchining faoliyati darhol baholanmasligi sababli, ba'zida xatolarni o'z vaqtida to'g'irlashga kechikishi mumkin. Mazkur ish davomida fidbek tushunchasi va uning o'quv jarayonidagi o'rni, ayniqsa gapirishdagi xatoliklarni to'g'irlash va o'rganuvchilarning rivojlanishiga bo'lgan ta'siri keng yoritildi. Gapirish jarayonida uchraydigan xatolar bir necha turga bo'linadi. Ularning har biri o'quvchining turli til qobiliyatlarida qanday qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi. Tilni o'rganishda, ayniqsa gapirishda, o'quvchilar fonetik, grammatik va leksik xatolarni tez-tez uchratishlari mumkin. Har bir xatolik turi o'ziga xos xususiyatlarga ega va ular alohida usullar va strategiyalar yordamida to'g'irlanishi lozim (Toshmurodova, 2020).

O'qituvchilar uchun ijobiy va salbiy fidbeklar orasidagi farqlarni to'g'ri tushunish va ularni amaliyotda qo'llash o'quv jarayonini samarali olib borish uchun asosiy ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi. Avvalo, fidbekning o'quv jarayonidagi muhimligini ta'kidlash lozim. O'quvchilar dars davomida xatolarini to'g'ri tushunib, ularni tuzatish orqali o'z bilimi va ko'nikmalarini rivojlantirishga intiladilar. Gapirishdagi xatoliklarni to'g'irlash, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini yaxshilashda va ularning lingvistik malakasini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ijobiy fidbek esa ushbu jarayonning ajralmas qismi sifatida o'quvchilarda motivatsiya, o'z-

o'ziga ishonch va faollikni oshiradi. Bu ularning har qanday xatoni yangilangan o'rganish jarayoniga aylantirishiga imkon yaratadi. Birinchi bobda fidbekning ta'rifi va uning turli xil yondashuvlari tahlil qilindi. fidbek o'quvchilarning o'z yutuqlari va xatolarini anglashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi, o'rganuvchilarni yanada faol bo'lishga rag'batlantirishi va ta'limning sifatini oshirishda muhim rol o'ynashi ko'rsatildi. Shuningdek, gapirishdagi xatoliklarni to'g'irlash jarayonida bevosita va bilvosita yondashuvlarning samaradorligi muhokama qilindi. Leksik xatolar ko'pincha so'zlarning turli ma'nolarini tushunmaslik, kontekstni noto'g'ri talqin qilish yoki cheklangan lug'at boyligi natijasida yuzaga keladi. Ba'zi so'zlarning ma'nosi turli kontekstlarda o'zgarishi mumkin, va bu til o'rganuvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Masalan, "run" so'zi ingliz tilida bir nechta ma'noga ega bo'lib, uni noto'g'ri kontekstda ishlatish leksik xato bo'lishi mumkin (Xudoyberdiyev, 2018)

Har bir o'quvchining xatolarini to'g'irlashga nisbatan o'ziga xos yondashuv talabi borligi e'tirof etildi. Ikkinchi bobda esa ijobiy fidbekning o'quvchilarning psixologiyasiga ta'siri va uning motivatsiya bilan o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdagi roli chuqurroq o'rganildi. o'quvchilarni rag'batlantirish orqali ularning rivojlanishiga hissa qo'shish va ularda yanada ko'proq o'z-o'ziga ishonch hosil qilish imkoniyati borligi o'z isbotini topdi. Shuningdek, amaliy tadqiqotlar natijalari tahlil qilinib, ijobiy va salbiy fidbekdan foydalanilgan guruhlar orasidagi natijalar solishtirildi. Ijobiy fidbek qo'llangan guruhlarda o'quvchilarning bilish faoliyati va gapirish ko'nikmalarida sezilarli o'sish kuzatilgani tajriba natijalarida yaqqol ko'rindi. Shu bilan birga, salbiy fidbekning haddan tashqari qo'llanishi o'quvchilarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ularning o'z-o'ziga ishonchini pasaytirishi, hamda darslarda faol ishtirok etishdan tortinishlariga sabab bo'lishi mumkinligi tadqiqot natijalarida aks etgan. Bu esa o'qituvchilarning har bir o'quvchi bilan ishlashda ijobiy yondashuvni qo'llashining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, fidbek o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqaning samaradorligini oshiradigan va ta'lim jarayonini yaxshilaydigan kuchli vosita ekanligi isbotlangan. Ayniqsa, gapirishdagi xatoliklarni to'g'irlash jarayonida ijobiy fidbekdan foydalanish o'quvchilarni yanada rivojlantirishda va ularning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, o'qituvchilar ijobiy fidbekni doimiy ravishda ta'lim jarayoniga kiritishlari, shuningdek, o'quvchilarning xatolarini tuzatishda moslashuvchan va individual yondashuvlarni qo'llashlari kerak. Kelajakdagi tavsiyalar sifatida, ijobiy fidbekni kengroq tadbiq etish, o'quvchilarning o'z o'rganish jarayonida ishtirokini oshirish, va har bir yutuqni nishonlash orqali ularning qobiliyatlarini shakllantirish tavsiya etiladi. Natijada, ta'lim jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarova, G. A. (2019) Xatolarni to'g'irlash usullari: o'qituvchilar uchun amaliy qo'llanma. *Pedagogik innovatsiyalar*, 3(5), 27-32. 2019
2. Toshmurodova, M. S. (2020) O'quvchilarga motivatsiya berishning psixologik jihatlari. *Milliy ta'lim jarayoni ilmiy-tadqiqot markazi jurnali*, 2(8), 22-29.
3. Зимняя, И. А. (2001) Педагогическая психология. Москва: Логос.
4. Шарипов, В. К. (2017) Gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilar bilan muloqotning ahamiyati. o'qituvchi va talabalar uchun metodik qo'llanma, 2(7), 15-21.
5. Xudoyberdiyev, N. M. Fidbek berish va dars samaradorligini oshirish yo'llari. *Pedagogik tahlil jurnali*, 1(3), 56-64. 2018